

SHEVALARNING FONETIK XUSUSIYATLARI

Ro'ziyeva Sevara, Fayzullayeva Laylo

Baxriyeva Durdona

Samarqand davlat universitetining kattaqo'rg'on filiali

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti FT21_12-guruh talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada shevalarning fonetik xususiyatlari va o'zgarishlar, shuningdek ilmiy va nazariy jihatdan tahlili haqida so'z boradi. So'z tarkibidagi tovush o'zgarishlari hamda shevalardagi o'zgarishlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: sheva, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, prokopa, apakopa, epenteza, metateza, progressiv, regressiv, birlamchi cho'ziqlik, ikkilamchi cho'ziqlik.

Adabiy til va shevalarni o'rganish ilmiy nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham unli tovushlar tarkibi bilan mustahkam bog'langan. Tilshunoslikning hamma bo'limlarini bir biriga bog'lab o'rgangandagina ularning taraqqiyot qonunlarini to'g'ri tushunish mumkin.

Morfologiyadagi egalik kategoriyalari, ularning turlanish, so'z yasash, leksikasida esa so'zlarning ma'nolarini o'rganish, so'zlarning turli tuman shakllarini aniqlash kabi masalalarni fonetik qonunlarini hisobga olmasdan turib tasavvur etish qiyin. Bu hol, ayniqsa shevalar uchun muhimdir.

Nutqda tovushlar yakka holda emas, balki so'z tarkibida ma'lum tartibda birikkan holda keladi. So'zlarni talaffuz qilganimizda ayrim tovushlar o'zaro bir-biriga ta'sir qiladi, natijada tovush o'zgarish ro'y beradi. Masalan, bir so'ziga -ta qo'shimchasi qo'shilganida t tovushining ta'sirida r tovushi t ga o'tadi, ya'ni bir+ta=bitta kabi.

Nutq oqimida yuz beradigan bu kabi tovush o'zgarishlari fonetik jarayonlar deyiladi. Fonetik jarayonlar qo'shni tovush artikulyatsiyasining boshlanishi va tugallanishi hamda tovushning so'z tarkibidagi mavqeい bilan bog'liq bo'ladi. Shunga ko'ra, fonetik jarayonlar ikki xil: kombinator o'zgarishli va pozitsion o'zgarishli bo'ladi. So'z tarkibidagi tovushlarning o'zaro ta'siriga ko'ra o'zgarishi kombinator o'zgarishlar deyiladi.

Bunday o'zgarishlarga assimilyatsiya, dissimilyatsiya, prokopa, epenteza, epiteza, sinkopa, apokopa, eliziya kabi fonetik hodisalar kiradi.

Qarluq chigil uyg'ur lahjasida unli tovush uyg'unligi yoki ohangdoshlik hodisasi uchramaydi. Shuning uchun ham ulardagи unlilar miqdori ko'p emas, unlilar fonemasining soni 6-8 dan oshmaydi. Jumladan, Toshkent shevalarida oltira (' , e, u, 0), Namangan shevasida sakkizta (, a, o, u, e,), Marg'ilon shevasida ettita unli (, a, o, u, e) fonema bor. Bu shevadagi unli fonemalar sifat jihatidan farqlanadi, o'zlariga xos xususiyatlari alohida qayd etiladi.

Buxoro, Urgat, Qarshi, Xo'jand, Chust shevalarining unlilar tarkibida ham oltitadan unli fonema bo'lib, ular miqdori Jihatdan Toshkent va Samarqand shevalardagi holatga tengdir. Vodiy va Jizzax shevalari, Toshkent atrofidagi ayrim (Parkent, Piskent, Chinoz) va Qarnob shevalarida unlilar Toshkent shevasidagi singaridir, Qo'qon va Marg'ilon shevalarida esa unli fonemalarning soni yuqoridan keltirilgan shevalardan bitta ortiqdir. Unda a fonemasi ham ishlataladi.

Yuqorida qayd etilgan shahar shevalaridagi unlilarning ko'plari g'arbiy Samarqand qarluq chigil uyg'ur shevalarida ham qo'llaniladi, ba'zilarida esa uchramaydi.

Xorazm qipchoq shevalarida faqat sporadik ravishda vujudga keladigan (ma'no farqlash xususiyatiga ega bo'lмаган) ikkinchi darajali cho'ziq unlilar mavjud. Ular shevada h, y singari undosh tovushlarning tushishi natijasida, shuningdek, ayrim so'zlarda qator kelgan ikki unlining qo'shilishi tufayli ikkilamchi Cho'ziq unlilar vujudga keladi. Masalan: sə:r (sahar), shə:r (shahar), Mənat//miynat (mehnat), sə:t//sa:t (soat), mə:mala (muomala), qana:t (qanoat) va boshqalar.

Assimilyatsiya lotincha so'z bo'lib, «o'xshash bo'lish» degan ma'noni ifodalaydi. U tovushlarning bir-biriga ta'siri natijasida ulardan birining ikkinchisiga o'xhab qolish hodisasisidir. Odatda, unlilar unlilarga, undoshlar undoshlarga assimilyatsiya qilinadi. Tovushlarning bir-biriga ta'sirining yo'naliishiga ko'ra progressiv va regressiv assimilyatsiya farqlanadi. Oldin kelgan tovush keyingi tovushga ta'sir qilib, o'ziga o'xshatsa progressiv, aksincha, keyingi tovush oldingisiga ta'sir qilib, o'ziga o'xshatsa regressiv assimilyatsiya deyiladi.

Dissimilyatsiya hodisasi ham o'zbek shevalarida ma'lum darajada uchrab turadi. Qarnob shevasida: zarur zaril, kassir kest'r, amma embe, zarar zelel; Urgut shevasida: zarur-zalul, bilan-minen; Parkent shevasida: zarar-zalal kabilar.

Dissimilyatsiya hodisasi Yom, Xorazm, Niyozboshi, Ming kabi sheva vakillarida nisbatan kam uchraydi. Masalan, zarar so'zi Xorazmda zelel. Niyozboshi, Ming shevalarida zelel/zerel shakllariga ega bo'ladi. Qipchoq lahjasida dissimilyatsiya hodisasi apcha keng tarqalgan. Masalan, nodon – leden, zarur – zeril, biror – biuran, kassir – kestir, mumkin – munkin kabi.

Dissimilyatsiya hodisasi assimilyatsiya kabi ikki xil: progressiv va regressiv dissimilyaciya shaklida bo'ladi. Progressiv dissimilyatsiya: zarar-zerel//zelel, zarur – zerul//zeril kabi.

Regressiv dissimilyatsiya: cht >sht: uchta ushte, pochta poshte (qorluq- chigil-uyg'ur); gu > vu: bugdoy – buvday; gm >ym: tugma tiyme, tegma tiyme; gn > yn: igna – iyne, egnim – iynam (qipchoq) kabilar.

Progressiv assimilyatsiyaga misol: ketdi-ketti (Toshkent), toshni-toshshi(Farg'ona).

Regressiv assimilyatsiyaga misol: yigitcha-yigichcha, tirno-tinno, so'zsiz-

so'ssiz (Buxoro). Assimilyatsiya moslashish darajasiga ko'ra ikki xil tipga ajraladi: to'liq va to'liqsiz. Bir tovush ikkinchi tovushni aynan o'zi kabi tovushga aylantirsa to'liq assimilyatsiya bo'ladi. Misol: suvni-suvvi (Toshkent), uch so'm-usso'm, qanday-qannay (Buxoro). Bir tovush ikkinchi tovushni o'ziga qisman o'xshatib olsa to'liqsiz assimilyatsiya bo'ladi. Misol: o'sdi-o'sti.

Metateza – so'z tarkibidagi tovushlarning o'zaro o'rinni almashishi o'zbek tilida, asosan, jonli so'zlashuvga xos bo'lib, adabiy tilda kam uchraydi. Misol: tuproq-turpoq, daryo-dayro, to'ramoq-to'ramoq, yomir-yomir, avhol-ahvol.

Epenteza hodisasi o'zbek tilining hamma shevalarida qo'llaniladi. Ayniqsa, Qarnob, Xo'jatug', Qang'li, Baxmal, Mang'it, Ming kabi shevalarda esa u yanada oydinlashadi. Masalan, adabiy tilidagi davr so'zi Qarnob shevasida esa duvir shaklida uchraydi. Qiyoq qiling: Qarnobda-dekelet, kerektr'r, t'renvey; Urgutda-daqolot, tiktir, tiranvoy. Adabiy tilda doklad, traktor, tramvay.

O'zbek tilining Kattaqo'rg'on va uning atrofidagi shevalarda ham xuddi Qarnob va Urgut shevalaridagi singari epenteza hodisasi kuchli saqlangan. Masalan, skelet-skalad, kensert – konsert kabi.

Yuqoridagilar singari fonetik hodisalarni G'allaorol tumani Qang'li qishloq shevasida ham ikki undosh o'rtasida bir I unli fonemasining orttirilib talaffuz qilinishini ko'ramiz. Masalan, ilm- ilim, kosib- kasb- kesip, kaft- kepit kabi.

Sinkopa hodisasining hosil bo'lishi bevosita urg'u masalasi bilan bog'langan bo'ladi. Urg'usiz bo'g'inlarda bir unli fonemaning tushib qolishi sinkopa hodisasi hisoblanadi. Masalan, maorif – merup// mer'p, Fotima – petme, silossles kabi. O'zbek tilining Kattaqo'rg'on, Qarnob, Parkent, Urgut, Mang'it kabi shevalarini va o'g'uz lahjasini olaylik. Bu shevalar vakillarining talaffuzida ayrim so'zlardagi ba'zi tovushlarni ishlatmaslik hollari (sinkopa) ko'plab uchraydi.

Shuningdek, hozirgi-kelasi zamon fe'lllarining ikkinchi bo'g'inidagi I, iu, u, u unlilar talaffuzda bevosita tushib qolishi natijasida vujudga keladi. Masalan, chaqiraman chaqraman, yuguraman – Yugremen, o'tiraman-otraman kabi.

So'z oxirida tovushlarning tushib qoldirilishi urg'uning odatdagidan boshqacha bo'lganligi sababli yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatda so'z oxirida urg'usiz unli yoki bo'g'in talaffuzda kuchsizlashadi va tushib qoldiriladi. Bu apokopa hodisasiidir. Masalan, minuta – minit, gazita-gezit, mashina-mashiun, apteka-aptik kabi. Urgut shevasida ham mino't, gazit, meshin, eptik tarzida ishlatiladi. Masalan, gazetti elli, mashin minan elip kelli kabi. Shuningdek, gazeta-gez't, mashina-mesh'n, kvartirakuvert'r, telegramma-telegrem kabi apokopa hodisasi Qarnob, Chuvalloq, Kattaqo'rg'on tumani ayrim jamoa xo'jaliklaridagi qishloq shevalarida hamda Uyshun shevasi vakillari talaffuzida bir a unlisining tushib qolishdan hosil bo'ladigan o'ziga xos xususiyat hisoblanadi.

Unlilarning birlamchi, ikkilamchi va emfatik cho'ziqliklari. Turkiy tillarning

dastlabki davrlarida so'zlarning bиринчи bo'g'инда unlilar cho'ziq talaffuz etilgan. Bunday cho'ziqlik boshqa tovush ta'sirida emas, balki qadimgi turkiy tilning tabiatи bilan bog`liqdir. Unlilarning bunday cho'ziqligi hozirgi Xorazm, Forish va shimoliy o'zbek shevalarida saqlanib qolgan: tu:sh, a:d, ba:la va boshqalar. Aslida bu kabi unlilar cho'ziqligi urg'uning dastlabki bo'g`inga tushishi xususiyati bilan boshangan. Bunday cho'ziqlik birlamchi cho'ziqdik deyiladi. Yondosh kelgan undosh tovushning nutqda talaffuz qilinmasliga natijasida unli tovush cho'zilishi mumkin: sandu: ma:ta:. Bunday cho'ziqlik ikkilamchi cho'ziqlik deyiladi.

Anakopa so'z oxirida keluvchi undosh tovushlarning tushib qolish hodisasiidir. Bu fonetik hodisa o'zbek lahja va shevalarida mavjud. Jumladan, Andijon Shevasida II, ss, mm, zd, st kabi undosh fonemalar o'zaro birikib kelganida, o'sha biriktirilgan undoshlardan biri tushirib talaffuz qilinadi. Masalan, gramm-g'rem, poyezd – poy'z kabi.

Ba'zi shevalarda bir bo'g'inli so'zlar oxirida ham anokopa hodisasi uchraydi: to'rt – to'r, qasd qas, rostros, kelke, do'st do's, g'isht – g'sh kabi.

Urgut shevasida: gusht-gosh, payvand-payvan; Samarqand shevasida: Samarkan, posh's, darax; Bulungur tumani Yangiravot qishloq shevasida: pas-pes, gisht – giush, Toshkent -Teshken, gusht – gosh tarzida talaffuz qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Reshetov V. V, Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektikologiyasi. -T.: O'qituvchi, 1978.
- 2.O'zbek dialektologiyasidan materiallar.1-qism. T.:Fan, 1957.
- 3.O'zbek dialektikologiyasidan materiallar. 2-qism. T.:Fan, 1960.
- 4.Jo'rayev B. O'zbek adabiy tili va dialektlari. -T.: Fan, 1963.
- 5.Mirzayev MM, "O'zbek tilining Buxoro guruh shevalari", Toshkent, 1969 -yil.
- 6.Ashirboyev S, "O'zbek dialektologiyasi "Toshkent, 2000-y/ma'ruza matnl/
- 7.Rajabov N "O'zbek shevashunosligi" Toshkent, "O'qituvchi" 1996-yil.
- 8.Doniyorov X "Qipchoq dialektlarining leksikasi", Toshkent, "Fan", 1997- yil.
- 9.www.ziyonet.uz